



ONA TILI TA'LIMIDA ERKIN TARBIYA TEXNOLOGIYASI BILAN DARSLARNI TASHKIL ETISH

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
talabasi Shermatova Mohira*

Annotatsiya: Mazkur maqolada ona tili ta'limalda erkin tarbiya texnologiyasining nazariy asoslari, pedagogik ahamiyati, uni amaliyatga tadbiq etish jarayonlari va bu boradagi dolzarb muammolar tahlil qilinadi. Muallif zamonaviy innovatsion yondashuvlar orqali ona tili darslarining samaradorligini oshirishda erkin tarbiya texnologiyasi imkoniyatlaridan foydalanish yo'llarini ochib beradi. Tadqiqot doirasida erkin ta'lim konsepsiysi asosida o'tkazilgan sinovlar, dars ishlanmalari, empirik kuzatuvlar asosida xulosa chiqarilgan

Kalit so'zlar: erkin tarbiya, ona tili, shaxsga yo'naltirilgan yondashuv, ta'lim texnologiyalari, til kompetensiyasi, innovatsion metodlar.

Ta'lim – jamiyat taraqqiyotining poydevori, inson kamoloti va milliy taraqqiyotning bosh omilidir. Har qanday xalqning ma'naviy-ma'rifiy darajasi, tafakkuri va dunyoqarashi ta'lim sifatiga bevosita bog'liq. Ayniqsa, til va nutq madaniyati bilan uzviy aloqador bo'lgan ona tili fani o'quvchilarning nafaqat grammatik bilimlari, balki ma'naviy-estetik dunyoqarashi, axloqiy qarashlari va shaxsiy kamolotini shakllantirishda muhim vosita hisoblanadi. Zamonaviy pedagogik qarashlar o'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan yondashuvni asosiy tamoyil sifatida ilgari surmoqda. Bunda o'quvchi passiv bilim oluvchi emas, balki o'zining qiziqishlari, ehtiyojlari va ichki potensialiga asoslangan faol subyekt sifatida namoyon bo'ladi. An'anaviy ta'lim metodlarining o'rnini asta-sekin o'zlashtirishga, izlanishga, ijodkorlikka yo'naltirilgan yondashuvlar egallamoqda. Shu bois, ona tili ta'limalda ham erkin tarbiya texnologiyasini joriy etish muhim masalaga aylangan. Erkin tarbiya g'oyasi ilk bor Yevropa pedagogikasida o'z aksini topgan bo'lib, ayniqsa J.-J. Russo, J. Dyui, M. Montessori, A.S. Makarenko kabi mashhur pedagoglar ta'limda



insonparvarlik, shaxsga hurmat, mustaqil fikrlash, erkin tanlovga asoslangan yondashuvni ilgari surganlar. Ularning g‘oyalari bugungi kunda zamonaviy pedagogikadagi konstruktivistik yondashuvlar bilan uyg‘unlashmoqda. Xususan, Vygotskiyning “yaqin rivojlanish zonası” konsepsiysi, shuningdek, Deweyning “tajriba orqali o‘rganish” tamoyili erkin tarbiya asoslarini belgilab berdi.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “Ta’lim tizimini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish to‘g‘risida”gi qarori, Milliy dastur va Konsepsiyalarda ham ta’limning innovatsion rivojlanishi, kreativ tafakkurni shakllantirish, zamonaviy texnologiyalar asosida o‘qitish asosiy yo‘nalishlardan biri sifatida e’tirof etilgan. Ayniqla, ona tili ta’limi mazmunini yangilash, interfaol va ijodiy metodlarni keng joriy etish, nutqiy faoliyatga asoslangan texnologiyalarni qo‘llash dolzarb vazifalar sirasiga kiradi.Erkin tarbiya texnologiyasi aynan ana shu ehtiyojlarga javob beradi: u o‘quvchiga fikrini erkin bayon qilish, tanqidiy mulohaza yuritish, muloqotda faol ishtirok etish va o‘z shaxsini anglash imkonini beradi. Ushbu texnologiyaning ona tili darslariga tadbiqi nafaqat til kompetensiyasini shakllantiradi, balki o‘quvchilarda hayotiy muammolarga real, asosli yondashuvni rivojlantiradi.Bugungi kunda nafaqat dars mazmuni, balki uning tashkil etilish uslubi ham o‘quvchi shaxsiga ta’sir ko‘rsatadi. Shu nuqtai nazardan, darsni erkin tarbiya asosida loyihalashtirish, o‘quvchi qiziqishlari va ehtiyojlaridan kelib chiqib o‘quv faoliyatini tashkil etish ona tili fanining insonparvarlik ruhidagi o‘qitilishiga xizmat qiladi. XXI asr – axborot va texnologiyalar asri bo‘lib, u har bir sohada yangilanishni, o‘zgarishni talab qilmoqda. Ta’lim tizimi ham bundan mustasno emas. An’anaviy metodlar o‘rnini asta-sekin zamonaviy pedagogik texnologiyalar egallamoqda. Bugungi o‘quvchidan faqat bilim emas, balki tafakkur, ijod, tanqidiy yondashuv, hamkorlikda ishlash ko‘nikmalari talab qilinmoqda.

Ona tili ta’limi shunchaki grammatika va imlo qoidalarini o‘rgatish bilan cheklanmasligi kerak. U – o‘quvchini mustaqil fikrlashga, estetik dunyoqarashga, milliy madaniyatni anglashga undaydigan fan bo‘lishi zarur. Aynan shu nuqtada erkin tarbiya texnologiyasi o‘zining dolzarb ahamiyatini namoyon etadi. Ushbu texnologiya



o‘quvchiga shunchaki bilim emas, balki u orqali o‘z shaxsini anglash, fikr bildirish va nutqiy faollik ko‘rsatish imkonini beradi.

Erkin tarbiya texnologiyasi – bu shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv asosida qurilgan, bolaning individualligini hurmat qiladigan, uning tabiiy intilishlari va qiziqishlarini inobatga oladigan ta’lim jarayonidir. Bunda o‘qituvchi yo‘lboshchi, tashkilotchi va hamkor sifatida ishtirok etadi. Bu yondashuv o‘quvchining erkin fikrlashini, tashabbuskorligini va ijodiy salohiyatini ro‘yobga chiqarishni ko‘zda tutadi.

Ona tili darslarida erkin tarbiya texnologiyasining qo‘llanilishi o‘quvchilarning shaxsiy faolligini oshirish, mustaqil fikrlashini rag‘batlantirish, o‘zini erkin ifoda etishiga imkon yaratish orqali ta’lim sifatini oshiradi. Bu texnologiyaning markazida shaxs, uning qiziqishlari, ehtiyojlari, erkin fikri va ijodiy yondashuvi turadi. Erkin tarbiya texnologiyasi o‘quvchining darsdagi subyektivligini kuchaytiradi, ya’ni u faqat bilim oluvchi emas, balki bilim yaratishda ishtirok etuvchi subyektga aylanadi. Yevropa va Amerika pedagogikasida keng ommalashgan erkin ta’lim yondashuvlari zamirida o‘quvchining o‘zini anglashi, faolligini kuchaytirish, tajriba orqali o‘rganishga asoslanadi. Jumladan, J. Dyui ta’limni hayotiy ehtiyojlar bilan bog‘lagan holda, uni “tajriba orqali o‘rganish” (learning by doing) deb ta’riflagan. Ushbu g‘oyani ona tili darslarida amaliyatga tatbiq etish, ayniqsa matnli ishlov, munozara, dramatizatsiya, erkin insho yozish, kollejiyum yoki loyiha asosidagi topshiriqlar orqali amalga oshirish mumkin.

Masalan, 9-sinf ona tili darsida “Fikrni mantiqan asoslash” mavzusini o‘rganishda o‘quvchilarga ijtimoiy muammolar haqida erkin fikr bildiradigan kichik maqola yozish topshirig‘i beriladi. Ular shaxsiy fikr bildiradi, turli nuqtayi nazarlarni solishtiradi va yakuniy xulosani mustaqil chiqaradi. Bu esa o‘quvchilarning analitik va tanqidiy tafakkurini rivojlantiradi.

Erkin tarbiya texnologiyasining asosiy afzallikkleri: O‘quvchi faolligini oshiradi: o‘quvchi dars davomida savollar beradi, muhokamalarda qatnashadi, o‘z nuqtayi nazarini bildiradi.



Mustaqil fikrlashga undaydi: o'quvchilar o'z nuqtayi nazarini mustaqil shakllantiradi va asoslaydi.

Ijodkorlikni rag'batlantiradi: adabiy tahlil, erkin insho yozish, sahnalashtirish orqali ijodiy yondashuv rivojlanadi.

Nutq kompetensiyalarini oshiradi: erkin ifoda qilish, muloqotda qatnashish, so'z boyligini kengaytirish ko'nikmalari shakllanadi.

Ijtimoiylashuvga yordam beradi: o'quvchilar guruhli ishlarda ishtirok etib, jamoada muloqot qilishni, hamkorlikni o'rganadi.

Tadqiqotlar ham bu yondashuv samaradorligini tasdiqlaydi. Masalan, A. Azizova (2020) olib borgan tajriba-sinov ishlari natijalariga ko'ra, erkin tarbiya texnologiyasi asosida tashkil etilgan darslarda o'quvchilarning ijodiy fikrashi 35% ga, muloqot madaniyati 40% ga oshgan. Shuningdek, Toshkent davlat pedagogika universitetida olib borilgan tadqiqotlarda ham bu texnologiya o'quvchilar shaxsiy salohiyatini ochishda muhim omil sifatida e'tirof etilgan [1]. Erkin tarbiya texnologiyasi o'z ichiga quyidagi metodlarni oladi: "Erkin mikrofonga" asoslangan usul: o'quvchilar mavzu bo'yicha erkin fikr bildiradilar. "Fikrlar yog'dusi": muammoni turli yo'llar bilan hal qilish taklif qilinadi. "Rol o'ynash": adabiy obrazlar, tarixiy voqealarni sahnalashtirish orqali anglash kuchayadi. Loyiha metodlari: o'quvchilar mustaqil izlanadi, adabiyotdan, hayotdan misollar keltiradi va ijodiy materiallar tayyorlaydi. Shu orqali o'quvchi o'z fikrini mantiqan asoslashni, o'z nuqtayi nazarini himoya qilishni, bahslashishni, muloqotda madaniyatli bo'lishni o'rganadi. Bu esa uni nafaqat bilimli, balki ijtimoiy faol va ma'naviy yetuk shaxs bo'lishiga yo'l ochadi.

Ona tili ta'limida erkin tarbiya texnologiyasini samarali joriy etish bir qarashda soddadek tuyulsa-da, amalda qator tizimli muammolar bilan to'qnash kelinadi. Bu muammolarni hal etmasdan turib texnologiyaning to'laqonli samarasiga erishib bo'lmaydi. Eng avvalo, mavjud darslik va metodik qo'llanmalarining mazmuni ko'proq bilim berishga yo'naltirilgan, ya'ni ularning asosiy vazifasi axborot uzatishdir. Erkin tarbiya esa bu yondashuvdan butunlay farqli bo'lib, shaxsga yo'naltirilgan, muhokama, fikr bildirish va tanqidiy yondashuvni taqozo etadi. Bundan tashqari, ayrim o'qituvchilar hali-hanuz erkin dars usullarini qo'llashga tayyor emas. Ularning



aksariyati an'anaviy o'quv modeliga tayanadi: "o'qituvchi aytadi – o'quvchi eslaydi". Bunday yondashuvda o'quvchining mustaqil fikrlashi, izlanishga bo'lgan qiziqishi so'nadi. Bu pedagogik inertlik nafaqat texnologiyani, balki o'quvchi shaxsini ham to'liq rivojlanishdan cheklaydi. Shuningdek, sinflarda o'quvchilar sonining ko'pligi, moddiy-texnik bazaning yetarli emasligi (ayniqsa, qishloq maktablarida), interaktiv uslublarni tatbiq etishga to'sqinlik qilmoqda. Ko'plab maktablarda loyiha asosida ishslashga, guruhlarda faoliyat yuritishga moslashtirilgan sinfxonalar mavjud emas. Bu holatda erkin fikr almashinushi uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlar yetarli emasligi aniqlanadi. Yana bir muhim muammo – o'quvchilarning passivligi. Ilgari faqat "to'g'ri javobni topish"ga odatlangan o'quvchi endi o'z fikrini erkin ifoda qilish, munozarada qatnashish, matnga subyektiv yondashish kabi ko'nikmalarni shakllantirishda qiynaladi. Mazkur muammolarni hal qilish uchun quyidagi yechimlarni taklif qilish mumkin: O'qituvchilarning malakasini oshirish. O'qituvchilarni erkin tarbiya texnologiyasining mazmuni, afzalliklari va metodik asoslari bilan tanishtirish, ularni muntazam seminar-treninglar orqali tayyorlash zarur. Bunda, ayniqla, faol metodlardan foydalanish ko'nikmasi shakllantiriladi. O'quv dasturlarini va darsliklarni takomillashtirish. Ona tili darsliklari va metodik qo'llanmalari yangilanishi, unda ochiq savollar, munozarali mavzular, amaliy topshiriqlar, hayotiy voqealar bilan bog'liq topshiriqlarga keng o'rin berilishi zarur. Texnik bazani yaxshilash. Sinf xonalarini kichik guruhlarda ishslash, loyiha va rolli o'yinlar o'tkazishga moslashtirish, zamonaviy ta'limgositalari bilan jihozlash kerak. Internet, vizual taqdimot vositalari, audio-video materiallar erkin ta'limgositalari bilan samarali platforma yaratadi. O'quvchilarni faollikka undash. O'quvchilarga erkin fikr bildirishga imkon berish, ular o'zlarini qadrlanishini his qilishlari uchun psixologik iqlim yaratish muhim. Rag'batlantirish, baholashning ochiq, motivatsion shakllarini qo'llash foydali bo'ladi. Erkin tarbiya texnologiyasi ona tili ta'limgositalari bilan shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni joriy etishning eng samarali vositalardan biri hisoblanadi. Bu texnologiya o'quvchini passiv tinglovchidan faol ishtiroychiga aylantirib, uning shaxsiy fikri, mulohazasi, nuqtayi nazarini ifoda etishga undaydi. Ta'limgositalarida o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, ijodiy yondashuv, analitik tafakkuri va muloqot kompetensiyalari shakllanadi. Aynan shu jihatlar



bugungi kunda zamonaviy shaxs tarbiyasida eng muhim mezon sifatida qaralmoqda. Olib borilgan kuzatuvlar va tajriba-sinov ishlari shuni ko'rsatadiki, erkin tarbiya texnologiyasi qo'llanilgan darslarda o'quvchilarning o'zlashtirish darjasи, mavzuga qiziqishi, darsga jalb etilish foizi an'anaviy darslarga nisbatan yuqoriroq bo'ladi. Ayniqsa, bahs-munozara, loyihamiy ishlар, dramatizatsiya, erkin insholar, kollejiyum, "fikrlar yog'dusi" kabi metodlar o'quvchilarni faollashtiradi, ular o'zini shunchaki tinglovchi emas, balki fikr bildiruvchi va yaratishga qodir shaxs sifatida ko'ra boshlaydi. Shuningdek, bu texnologiyaning joriy etilishi orqali o'qituvchining roli ham o'zgaradi — u endilikda bilim beruvchi emas, balki yo'naltiruvchi, maslahat beruvchi, sherik sifatida maydonga chiqadi. Bu esa o'quvchi va o'qituvchi o'rtasida sog'lom, ishonchli muhitni shakllantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Biroq, bu yondashuvni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun tizimli muammolarni bartaraf etish zarur: o'qituvchilarning malakasini oshirish, o'quv dasturlarini takomillashtirish, darslik va qo'llanmalarda ijodiy topshiriqlarga kengroq o'rin berish, maktablarning moddiy-texnik bazasini kuchaytirish, o'quvchilarni faol fikrlashga rag'batlantirish kabi masalalar hal qilinishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Yusupov, Sh.S. (2021). Pedagogik texnologiyalar: nazariya va amaliyat. Toshkent: O'qituvchi nashriyoti.
2. Dewey, J. (1916). Democracy and Education. New York: Macmillan.
3. Rousseau, J.J. (1762). Emile, or On Education.
4. Vygotsky, L.S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press.
5. Mahkamova, D. (2020). Ona tili darslarida innovatsion metodlardan foydalanish. Til va adabiyot, 4сон.
6. Nasriddinov, M. (2019). O'zbek maktablarida til o'qitish metodikasi. Toshkent: Fan nashriyoti.
7. Karimov, B. (2022). Til kompetensiyasini shakllantirishda kommunikativ yondashuv. Filologiya va tillarni o'qitish, 1сон.



8. UNESCO (2015). Rethinking Education: Towards a Global Common Good? Paris: UNESCO Publishing.
9. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi (2021). Ona tili fanidan metodik qo‘llanma. Toshkent.
10. Aliyeva, N. (2023). Erkin ta’lim – zamonaviy ta’limning asosi. Ta’lim innovatsiyalari jurnali, 3(2).